

A PRAGMATIC ANALYSIS OF THE SPEECH ACTS OF THE POLICE ON VIOLATION OF TRAFFIC RULES

Farkhod Khabibullayevich ABDULLAYEV

Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

Senior Specialist

Legal Support Department

Ministry of Internal Affairs

Tashkent, Uzbekistan

YO'L HARAKATI QOIDABUZARLIGI HOLATLARINI SURISHTIRISH JARAYONIDA MANSABDOR SHAXSLAR NUTQ AKTLARINING PRAGMATIK TAHLILI

Farxod Xabibullayevich ABDULLAYEV

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Katta mutaxassis

Yuridik ta'minlash boshqarmasi

Ichki ishlar vazirligi

Toshkent, O'zbekiston

ПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РЕЧЕВЫХ АКТОВ ДОЛЖНОСТНЫМИ ЛИЦАМИ В РАССЛЕДОВАНИЯХ НАРУШЕНИЙ ПРАВИЛ ДОРОЖНОГО ДВИЖЕНИЯ

Фарход Хабибуллаевич АБДУЛЛАЕВ

Доктор философии (PhD) по филологическим наукам

Старший специалист

Управление правового обеспечения

Министерство внутренних дел

Ташкент, Узбекистан fxa1982@gmail.com ORCID: 0000-0002-8564-706X

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Abdullayev F.X. Yo'l harakati qoidabuzarligi bo'yicha xodimlarning surishtiruvida nutq aktlari qo'llanishining pragmatik tahlili// O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025. — 11-jild, № 2. — B. 7-18.

<https://doi.org/10.36078/1746082593>

Received: February 14, 2025

Accepted: April 17, 2025

Published: April 20, 2025

Copyright © 2025 by author(s).

Abstract. The article on the basis of speech acts studies the conversations of the US Highway Patrol police officer and the Road Patrol Service officer of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan (hereinafter – the Uzbek Road Patrol Service officer) with the driver of the vehicle regarding the violation. The purpose of the study is to reveal the reasons for the use of speech acts that served to increase effectiveness in the speech of a US Highway Patrol police officer and an Uzbek Road Patrol Service officer. The problem is studied based on the descriptive-qualifying method. The sentences used by the US Highway Patrol officer and the Uzbek Road Patrol Service officer during the investigation are taken as a source. J. Searle's theory is used in the analysis of sentences by speech acts. Representative, directive, commissive, expressive and declarative types of speech acts were found in the investigations. The results show that the representative speech act is active in communication. The use of the directive speech act in questions of inquiry, clarification, and confirmation makes it possible to reveal the

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



necessary information. Meanwhile, drivers used representative speech acts to inform, explain, describe, confirm or deny. Feeling the issue of responsibility, both sides tried to make their point clear.

Keywords: speech act; communication; interviews; conversation; policeman; officer; pragmalinguistics.

Annotatsiya. Maqolada AQSh yo'l patrul politsiyachisi va O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Yo'l patrul-xizmati xodim (keyingi o'rinlarda — YPX xodimi)larining avtotransport vositasi haydovchisi bilan qoidabuzarlik yuzasidan amalga oshirgan suhbatlari nutq aktlari asosida o'rganildi. Tadqiqotning maqsadi AQSh yo'l patrul politsiyachisi va YPX xodimi nutqida ta'sirchanlikning ortishiga xizmat qilgan nutq aktlarining qo'llanish sabablarini yoritishdan iborat. Maqolada muammo tavsiflovchi-sifatlovchi metod asosida tadqiq qilindi AQSh yo'l patrul politsiyachisi va YPX xodimi surishtiruv jarayonida qo'llagan jumlar manba sifatida olindi. Jumalarni nutq aktlari bo'yicha tahlil qilishda J. Syorlning nazariyasiga tayanildi. Surishtiruvlarda nutq aktining reprezentativ, direktiv, komissiv, ekspressiv va deklarativ turlari uchradi. Natijalar reprezentativ nutq akti muloqotda faol ekanligini ko'rsatdi. Direktiv nutq aktining surishtiruv, aniqlik kiritish va tasdiqlash savollarida qo'llanishi zarur ma'lumotlar yuzaga chiqarishga imkon bergan. Shu bilan birga, haydovchilar reprezentativ nutq aktini ma'lumot berish, tushuntirish, tavsiflash, tasdiqlash yoki rad etish maqsadida qo'llagan. Har ikki tomon javobgarlik masalasini his qilgan holda fikrni aniq bayon qilishga intilgan.

Kalit so'zlar: nutq akti; muloqot; surishtiruv; suhbat; politsiyachi; xodim; pragmalinqvistika.

Аннотация. В статье на основе речевых актов были изучены беседы сотрудников дорожно-патрульной службы США и сотрудников дорожно-патрульной службы Министерства внутренних дел Республики Узбекистан (далее – сотрудник ДПС) по поводу нарушения правил дорожного движения водителями. Целью исследования являются причины использования речевых актов, способствующих повышению эффективности речи сотрудников дорожно-патрульной службы США и сотрудников ДПС. В статье проблема изучается с использованием описательно-определяющего метода. В качестве источников были взяты фразы, использованные сотрудниками дорожной полиции США и сотрудниками ДПС в ходе дознания. Анализ предложений по речевым актам основывался на теории Дж. Серля. В ходе дознаний были выявлены репрезентативные, директивные, комиссивные, экспрессивные и декларативные типы речевых актов. Результаты показали, что репрезентативный речевой акт активен в коммуникации. Использование директивного речевого акта в вопросах дознания, уточнения и подтверждения позволяло раскрыть необходимую информацию. Обе стороны стремились четко выразить свою точку зрения, осознавая при этом проблему ответственности.

Ключевые слова: речевой акт; коммуникация; дознание; беседа; полицейский; сотрудник; прагмалингвистика.

Kirish

Yo'l harakati qoidalarini buzish yuzasidan o'tkaziladigan surishtiruvlarda huquqbuzarlikni sodir etishga imkon bergan sabablar, unda ishtirok etgan shaxslarni aniqlash hamda isbotlash uchun zarur

bo'lgan dalillar qo'lga kiritiladi. Odatda qoidani buzgan haydovchilar dalillarni qisman taqdim etadilar yoki jarimani yengillashtirish uchun boshqa shaxslarning aybini ko'rsatadilar yoxud javobgarlikni boshqa haydovchilarga yuklaydilar. Bunday haydovchilar asosan yolg'on gapirish, dalillarni yashirish, xodimlarga qarshilik ko'rsatish yoki hamkorlik qilmaslikka harakat qiladilar. Mazkur holat xodimlardan hodisani tahlil qila olish, huquqbuzardan to'liq, haqqoniy va muhim ma'lumotlarni ola bilish qobiliyatiga ega bo'lishni talab qiladi. Yo'l harakati qoidabuzarligi yuzasidan surishtiruv suhbatini samarali olib borish ko'nikmasiga ega bo'lish uning qisqa vaqt ichida qoidabuzarni jarimadan ozod etish yoki uning aybini isbotlashga imkon berishi lozim.

AQSh va O'zbekiston Respublikasida yo'l harakati qoidalari belgilanishida farqlar mavjud. AQSh federativ davlat tuzilishiga egaligi tufayli har bir shtat o'zining qonunlari yo'l harakati qoidalariga ham ta'sir qiladi. Ushbu davlatda yo'llarda harakatlanish tegishligiga ko'ra quyidagi ma'lumotnoma yoki yo'riqnomalar asosida tartibga solingan:

Nyu-York — "Haydovchiga ma'lumotnoma" (ing.);

Kaliforniya — "Kaliforniya haydovchilariga yo'riqnoma" yoki "Haydovchining kaliforniya ma'lumotnomasi" (ing.);

Alabama — "Alabama haydovchilariga yo'riqnoma" (ing.);

Ohayo — "Ohayo shtati BMV yo'riqnomasi" (ing.);

Michigan — "Har bir haydovchi nimalarni bilishi lozim?" (ing.);

Nyu-Djersi — "Nyu-Djersi yo'riqnomasi" (ing.)

[<https://www.bazar.club/blog/post/driving-us-rules-and-signs>];

O'zbekiston Respublikasida yo'l harakati qoidalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yo'l harakati qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2022-yil 13-apreldagi 172-son qarori asosida respublikaning barcha hududlarida bir xilda joriy etiladi [<https://lex.uz/docs/5953883>].

Shuningdek, AQSh yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashga mas'ul politsiya xodimlari har qanday yo'l harakati qoidabuzarligi holati yuzasidan tegishli hujjat (tiket)ni rasmiylashtirib, uni ko'rib chiqishni sudga topshiradi. Sud eshituvidan so'ng sudya tomonidan tegishli jarima belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasida yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun jarimalarni belgilash tegishlilik bo'yicha Ichki ishlar vazirligi Yo'l harakati xavfsizligi Ma'muriy amaliyot bo'limi yoki sud organlari tomonidan belgilanadi.

Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlovchi xodimlar hodisani aniqlash yuzasidan turli kayfiyatdagi haydovchilar bilan muloqot qiladilar. Haydovchidan kerakli ma'lumotni olish uchun muloqotda turli strategiyalarni qo'llaydilar. O'zaro muloqotda nutq muhim ahamiyat kasb etishini anglagan holda, uni ifoda etish jarayonida mos keluvchi nutq aktlarini tanlaydilar.

AQSh yo'l patrul politsiyachisi va YPX xodimi uchun nutq maqsadini anglagan holda muloqot strategiyasini to'g'ri qo'llash katta ahamiyatga ega. Surishtiruvda to'g'ri tanlangan muloqot strategiyasi

qoidabuzarlikni sodir etishga bo'lgan maqsadni aniqlashtiradi hamda haydovchi yashirayotgan ma'lumotni yuzaga chiqaradi.

Mazkur tadqiqot uchun tanlangan videoyozuvlarda AQSh yo'l patrul politsiyachisi va YPX xodimi tomonidan qoidabuzarlik bo'yicha o'tkazilgan surishtiruvda qo'llangan nutq aktlari tahlil qilindi. Ayrim hollarda xodimlar tomonidan qo'llangan muloqot strategiyalari haydovchilarni qilmishni tan olishga yetarli bo'lmagan. Mazkur hodisani batafsil tahlil qilish maqsadida surishtiruvda qo'llangan nutq aktlari shakllari, vazifalari va ularning davriyligi alohida o'rganildi.

Olimlar tomonidan xorijiy davlatlarning politsiya surishtiruvida aks etgan nutq aktlari o'rganilgan. Xususan, R. D. Barus, A. Saragi, T. Zeynning maqolasida politsiya so'rog'ida representativ — suhbatdoshni xabardor qilish, direktiv — faktlarni olish maqsadida savol so'rash, komissiv — rozilik bildirish, ekspressiv — fikrni qabul qilish va deklarativ — so'roqni tugatishda qo'llanilishi ta'kidlangan [Barus 2017].

Ju. Heidi va N. Setyaningsih tomonidan sud eshituvi jarayonida o'ziga xos mavqega ega shaxs nutq aktining o'ziga xos funksiyasini yuzaga keltirishi, nutq aktlaridan representativ — ta'kidlash, axborot berish, rozilik bildirish, direktiv — buyurish, so'roq qilish, ogohlantirish, ruxsat etish, komissiv — taklif qilish, qabul qilish, rad qilish, tahdid qilish, va'da berish, ekspressiv — tashakkur bildirish, tabriklash, afsuslanish, norozilik, g'azabni ifodalash, qoralash kabilarni ifodalashda qo'llanilishi yoritilgan [Heidi & Setyaningsih 2024].

E. Xolt va R. Klifga ko'ra, o'zlashtirma gapning ekspressiv xususiyatlarini qo'llash surishtiruv uchun zarur faktlarni yuzaga chiqarishga imkon beradi [Holt & Cliff 2010].

A. M. Xoyi va B. Benamning tadqiqotiga ko'ra, ayblovlar va oqlor ishlarida nutq aktlaridan direktiv ko'p, komissiv kam miqdorda qo'llanadi, ayblanuvchining savollarga javob berishda qiyinchilikka duch kelishi xodim qo'llagan nutq akti turlariga bog'liq ekanligi ta'kidlangan [Khoyi, 2014].

Adabiyotlar tahlili

Nutq turli tushuncha, fikr va suhbat shakllarida namoyon bo'ladi. Pragmatikada esa bu nutq aktlarida yuzaga chiqadi. J. Searl nutq aktlari uch komponentdan iboratligini ta'kidlagan: lokutsiya (biror narsani aytish), illokutsiya (biror narsani qilish) va perlokutsiya (kimgadir ta'sir qilish) [Searle 1969]. Muloqotda ushbu komponentlar doim yonma-yon uchramaydi, biroq ayrim hollarda ular uyushib nutqni hosil qilishi mumkin. Bu ayrim ijtimoiy va madaniy ekstralingvistik omillarga bog'liq holda sodir bo'ladi. Yo'l harakati qoidalarining buzilishi yuzasidan o'tkazilgan surishtiruvlarda AQSh yo'l patrul politsiyachisi va YPX xodimi illokutiv nutq aktini ko'p qo'llaydilar. Ushbu surishtiruvda haydovchidan izoh berish, holatga oydinlik kiritish talab qilinadi, dalillar keltirib haydovchi ma'lum bir harakatga undaladi. Mazkur omillarni inobatga olib, AQSh yo'l patrul politsiyachisi va YPX xodimining surishtiruvda qo'llagan muloqot strategiyasi tahlil qilinadi.

Nutq aktlari turlari bo'yicha olimlarning fikrlari bir-birini to'ldiradi. J. Syorl illokutivni assertiv, direktiv, ekspressiv, komissiv va deklarativlarga bo'lib tasniflagan [Searle 1969]. Ushbu tasnif Ch. Kreydler tomonidan yana yetti turga bo'lingan: assertiv, performativ, verdiktiv, ekspressiv, direktiv, komissiv va fatik [Kreidler 1998]. Mazkur shakllar fe'llarda namoyon bo'ladi va vazifasiga ko'ra nutqda pragmatik kuchni ifodalaydi.

Pragmatik mazmunni aniqlashtiruvchi fe'llar nutqning pragmatik kuchini namoyish etadi. Masalan, assertiv fe'llar aytish, e'lon qilish, tushuntirish, ko'rsatish, ishora qilish, eslatish va xabar qilish. Performativ fe'llar cho'qintirish, nomlash, tayinlash, jazolash, hukm qilish va e'lon qilish. Verdiktiv fe'llar baholash, iltifot ko'rsatish va kechirish. Ekspressiv fe'llar tan olish, kechirish va hamdardlik bildirish. Direktiv fe'llar buyurish, talab qilish va fikr taklif qilish. Komissiv fe'llar savol so'rash, rozilik bildirish, biror ishni taklif qilish, rad etish, va'da berish, qasam ichish, salomlashish.

Metodlar

Ushbu tadqiqotda deskriptiv miqdor usulidan foydalanilgan. Internetning "www.youtube.com" sahifasiga joylashtirilgan "Live PD Most Viewed Moments from Greene County, Missouri A&E" [<https://www.youtube.com //Live PD Most Viewed Moments from Greene County, Missouri A&E>] va "Avtopatrul | Toshkent viloyati va hududlar bo'ylab reyd tadbirlari [01.02.2024]" [[https://www.youtube.com //Avtopatrul | Toshkent viloyati va hududlar bo'ylab reyd tadbirlari \[01.02.2024\]](https://www.youtube.com //Avtopatrul | Toshkent viloyati va hududlar bo'ylab reyd tadbirlari [01.02.2024])] nomli videolavhalar tahlil qilindi.

Tadqiqotning obyekti surishtiruv jarayonida qo'llangan AQSh yo'l patrul politsiyachisi va YPX xodimi nutqi hisoblanadi. Misollar shakl, vazifa va nutqni yetkazish texnikasiga ko'ra tadqiq qilindi. Shakllar Ch.Kreydlerning tasnifiga asoslandi, vazifalar esa savol so'rash, himoya qilish, buyurish, ayblash va hukm qilish kabi fe'llarga bo'lib ko'rib chiqildi.

Natija va mulohaza

AQSh politsiyachisi va xodimlarning og'zaki surishtiruv olib borish usullari

Surishtiruv savollari uch bosqichga bo'lindi. Birinchi jadvalda har bir bosqichda qo'llangan savollar miqdori va mavzularining tahlili ko'rsatilgan.

1-jadval

AQSh yo'l patrul politsiyachisi

Bosqich	Savollar raqami	Savollar miqdori	Mavzu
1	1	1 (4,5 %)	Salomlashish
2	2–7	6 (27,5 %)	Qoidabuzar haydovchi va uning muammolari

	8–13	6 (27,5 %)	Haydovchilik majburiyatlari
	14–16	3 (13 %)	Qoidabuzarlikni sodir etish jarayoni
3	17–22	6 (27,5 %)	Qo‘shimcha ma‘lumot olish, e‘tiborga molik ma‘lumot, hodisa bo‘yicha munosabat

Natijalarga ko‘ra, birinchi bosqichda AQSh yo‘l patrul politsiyachisi haydovchidan umumiy ma‘lumotlarni olgan. Savollarning aksariyat qismi ikkinchi bosqichda so‘ralgan. Ushbu bosqichda haydovchi ma‘lumotni yashirishga uringan va qoidabuzarlik jarayoni haqida bilmasligini aytib, hamkorlik qilishni istamagan. Birinchi va ikkinchi bosqichlarda muloqot orqali hamkorlik o‘rnatilgan, haydovchining majburiyatlari tushuntirilgan, uchinchi bosqichda qo‘shimcha ma‘lumotlar to‘plangan.

2-jadval

YPX xodimi

Bosqich	Savollar raqami	Savollar miqdori	Mavzu
1	1–2	2 (6 %)	Qoidabuzarlik to‘g‘risida xabar
2	3–8	6 (18 %)	Qoidabuzarlik tafsilotlari
	9–10	2 (6 %)	Haydovchilik majburiyatlari
	11–16	6 (18 %)	Qoidabuzarlikni sodir etish jarayoni
3	17–34	18 (52 %)	Qo‘shimcha ma‘lumot olish, e‘tiborga molik ma‘lumot, hodisa bo‘yicha munosabat

Birinchi bosqichda xodimning muloqoti qoidabuzarlik to‘g‘risidagi xabardan boshlanadi. Farqli ravishda haydovchidan qo‘shimcha ma‘lumot olishga qaratiladi, shuningdek, muloqotda qoidabuzarlik tafsilotlari aniqlashtiriladi, haydovchining hodisaga munosabatini o‘rganishga e‘tibor qaratiladi.

3-jadval

AQSH yo‘l patrul politsiyachisi qo‘llagan nutq akti turlari

Komissiv		Verdiktiv		Direktiv		Umumiy miqdor
Savol so‘rash	Taklif qilish	Ayblash	Baholash	Buyruq berish	Talab qilish	
22 (56 %)	2 (5 %)	5 (13 %)	3 (8 %)	3 (8 %)	4 (10 %)	39 (100 %)

Uchinchi jadvaldan AQSh yo‘l patrul politsiyachisi muloqotida komissiv, direktiv va verdiktiv nutq aktlarining qo‘llanish miqdorlari ko‘rsatilgan. Komissiv-savol so‘rash nutq akti 56 % miqdor bilan politsiyachi tomonidan eng samarali muloqot strategiyasi bo‘lganligini

ko'rsatadi. Surishtiruvda 39 ta nutq akti qo'llanilgan, shuning 8% direktiv-buyruq, 13 % verdiktiv-ayblash va 8 % baholash aktini tashkil etgan.

Shuningdek, bir savolning o'zida nutq aktlaridan komissiv-savol so'rash 56 % miqdorda va direktiv-buyurish 8 % miqdorda qo'llanishi qoidabuzar haydovchini to'g'ri yo'lga solishga xizmat qilgan. Verdiktiv nutq akti ayblash gaplarida 13 %, baholash gaplarida 8% ni tashkil qilib, haydovchini rost so'zlashga undagan.

4-jadval

YPX xodimi qo'llagan nutq akti turlari

Komissiv	Direktiv	Ekspressiv	Verdiktiv		Umumiy miqdor
Savol so'rash	Buyruq berish	Ta'kidlash	Ayblash	Baholash	
17 (50 %)	2 (6 %)	7 (20,5 %)	3 (9 %)	5 (14,5 %)	34 (100 %)

Ushbu jadvaldan ichki ishlar xodimi muloqotida komissiv-savol so'rash 50% miqdorni tashkil qilgan. Farqli ravishda muloqotda ma'noni kuchaytirishda ekspressiv-ta'kidlash nutq akti 20,5% miqdorda qo'llanilgan. Shuningdek, mazkur surishtiruvda komissiv-taklif qilish va direktiv-talab qilish nutq aktlari uchramagan. Maqsad sari undashda verdiktiv-ayblash akti 9% miqdorda kam qo'llanishi farqli jihatlarni tashkil qiladi.

AQSh yo'l patrul politsiyachisi va YPX xodimi surishtiruvda ko'plab holatlar o'z tasdig'ini topadi. Savollarga berilgan javoblar orqali dalillar to'planadi, bu esa komissiv nutq aktini keng qo'llashga olib keladi. Haydovchi taqdim qilgan dalillar ba'zi hollarda haqiqatga zid kelishi natijasida muloqot strategiyasini qo'shimcha ma'lumot olib keladigan tarzda qo'llash zarurati yuzaga keladi. Tahlil qilingan muloqotlarda nutq aktlarining turlicha qo'llanishi kutilgan natijani keltirgan.

Surishtiruvda nutq aktlarining vazifalari

Turli nutq aktlari qo'llangan muloqot strategiyasi o'zaro aloqada tegishli vazifalarni bajaradi. Surishtiruvda batafsil ma'lumot to'planadi, yashirilgan va rad qilingan dalillar yuzaga chiqadi. Surishtiruv yakuniga ko'ra haydovchining qoidabuzarligi tegishli moddalar bo'yicha tasniflangach, sud yoki tegishli organ tomonidan tegishli jazo tayinlanadi. Quyidagi jadvalda AQSh yo'l patrul politsiyachisi va YPX xodimi surishtiruvda vazifasiga ko'ra qo'llagan nutq aktlari tahlili keltiriladi.

5-jadval

Vazifasiga ko'ra nutq aktlarining qo'llanishi

AQSh yo'l patrul politsiyachisi						
Ma'lumotni sinchiklash	Aynan-lashtirish	Ishora qilish	Sinash	Bahs-lashish	Bosim o'tkazish	Bo'y-sundirish
9	7	11	1	2	5	4

(23 %)	(18 %)	(28 %)	(2,5 %)	(5 %)	(13 %)	(10,5 %)
YPX xodimi						
12 (32,4 %)	3 (8,1 %)	6 (16,2 %)	1 (2,7 %)	8 (21,6 %)	1 (2,7 %)	3 (8,1 %)

Beshinchi jadvalda AQSh yo'l patrul politsiyachisi so'roq qilish jarayonida haydovchidan ma'lumotni sinchiklab olgani (23 %) ma'lum bo'ladi. Biroq qoidabuzar haydovchi muhim ma'lumotni yashirib, hamkorlik qilishga istak bildirmagani bois aynanlashtirish, bosim o'tkazish, sinash, bahslashish, ishora qilish va bo'ysundirish kabilarni qo'llagan. Taqdim qilingan dalillarning haqqoniyligini tekshirish, ishora qilish esa dalillar qarama-qarshi kelganda, aynanlashtirish vazifasi sifatida (28 %) qo'llagan. Shuningdek, sinash orqali yashirilgan ma'lumotni yuzaga chiqarish (2,5 %), dalillar bo'yicha bahslashish (5%), haydovchini rostgo'y bo'lishda bosim o'tkazish (13 %), bo'ysundirish (10,5 %) maqsadlarida qo'llagan.

YPX xodimi esa e'tiborni ko'proq ma'lumotni sinchiklashga (32,4 %) qaratgan. Haydovchi vajlarni keltirganida YPX xodimi ularni rad etib bahsga kirishgan (21,6 %). Farqli ravishda nutq aktlarini aynanlashtirish (8,1 %), ishora qilish (16,2 %) va bosim o'tkazish (2,7 %) kabi vazifalarida kam qo'llagan.

Qoidabuzarlikni fosh qilishda muloqotning pragmatik kuchi

Birinchi jadvalga ko'ra surishtiruv uch bosqichdan iborat bo'lgan. Birinchi bosqichda haydovchining surishtiruvga bo'lgan xohishini aniqlangan, ikkinchi bosqichda sodir etilgan qoidabuzarlik to'g'risida muloqot qilingan, uchinchisida xulosa qilingan. AQSh yo'l patrul politsiyachisi va YPX xodimi haydovchi bilan savol-javob qilib, sodir etilgan qilmish yuzasidan mantiqiy dalillarni shakllantirishgan. Buni quyidagi misollarda ko'rish mumkin.

AQSh yo'l patrul politsiyachisi:

Police: What's going on? (1-savol)

Birinchi savolda politsiyachi muloqot o'rnatishga harakat qilmoqda. Bo'layotgan ishlar haqida savol so'rab qoidabuzar haydovchining surishtiruv olib borishga tayyorligi aniqlashtirilgan. Mazkur savol natijasida haydovchi qisman ko'rsatuv berishni boshlagan, biroq noaniq javobni taqdim qilgan. AQSh yo'l patrul politsiyachisining savoli muloqot muhitini yuzaga keltirib, suhbatda hukmron bo'lishini bildirgan.

Police: Just chilling? OK, do you know where you're at? (2-3-savollar)

Politsiyachi holat yuzasidan umumiy ma'lumot olishga harakat qilgan. Savol orqali qoidabuzar haydovchining yo'l harakati qoidalarining to'xtash talablari bo'yicha bilimini tekshirgan. Javob qoidabuzar haydovchining o'ziga qarshi ishlatilishi mumkin.

Police: All right, man, do you have got anything illegal on you? (10-savol)

Politsiyachi haydovchidan noqonuniy vositalar bor-yo'qligi haqida savol so'rab, ma'lumotni sinchiklagan. Haydovchiga hech narsaga teginmaslikka buyruq bergan. Komissiv-savol so'rash aktini qo'llash orqali qoidabuzar haydovchiga holat bo'yicha ish qo'zg'atish haqidagi niyat yetkazilgan. Dalillar yuzasidan so'ralgan savollar haydovchiga muammolarni keltirib chiqargan. Muloqotda politsiyachi birinchi bo'lib haydovchi bilan bahsga kirishgan. Ushbu savol orqali politsiyachi qat'iylikni ifodalagan.

Police: Do you see that your car's still smoking actively? (15-savol)

AQSh yo'l patrul politsiyachisi mashinada yana boshqa yo'lovchi ham bo'lganini bilgan. Mazkur savol javobning haqiqatga to'g'ri kelishini tekshirish maqsadida so'ralgan. Shoshilinch qo'ng'iroqda ikki kishi uzoq vaqtdan beri tutayotgan mashina yo'l chetida turgani haqida xabar qilingan edi. Komissiv-savol so'rash akti hodisada boshqa ishtirokchi haqida so'zlashga undagan.

Police: All right, so you told me you smoked it all. What about the 8 grams in the bag that was sitting in the center console? (18-savol)

Yuqorida 17-savolga yuzaki javob berilishi natijasida 18-savolda g'azab ifodalangan. Mashina salonidan topilgan dalillarni haydovchi qisman rad etgan. Bu bilan o'z fikrlarini mantiqiy ketma-ketlikda yaxshi ifodalay olishini bildirgan. Shu bois dalillar ifodalangan komissiv-savol so'rash nutq akti haydovchiga bosimni kuchaytirgan. AQSh yo'l patrul politsiyachisi quyidagi aynanlashtiruvchi savollar orqali surishtiruvni davom ettirgan.

Police: So, you just forget about 8 grams? (19-savol)

Police: Is it because you're so high that you forgot? (20-savol)
(Driver: ... 'cause I'm stoned.)

AQSh yo'l patrul politsiyachisi savollarni takrorlab, haydovchini chorasiz qoldirgan hamda uning bergan ko'rsatmalarini tasdiqlab olgan. Ortiqcha bahs-munozara qilmasdan, ishontirish orqali haydovchidan qoidabuzarlikni tan olishga undagan.

Police: OK. Here's our next dilemma. How are we getting home? Do you have a phone you can call people? (21–22-savollar)

Ishontirishga asoslangan savollar gumonlanuvchiga dalillarni tan olishga olib kelgan. Politsiyachi haydovchi yashirgan ma'lumotni topish, uni fosh qilishda bosqichma-bosqich savollar strategiyasini qo'llagan. Mazkur "How are we getting home?" — "Uyingizga qanday boramiz?"

jumlasi ma'nosida haydovchi qoidabuzarlik sodir etgani hamda uni tan olgani anglashiladi.

YPX xodimi: Yo'lovchi tashish transport vositasi, to'g'rimi? (2-savol)

Ikkinchi savolda YPX xodimi muloqotni ritorik savol bilan boshlab, haydovchi bilan ziddiyatga kirishishni boshlagan. Muloqotning boshida haydovchidan tasdiq javobini olishi bilanoq, undan keyingi ritorik savolni so'ragan.

YPX xodimi: Chunki bu – turadigan joy emas yoki belgilanganmi shu yerda? (3-savol)

YPX xodimi qoidabuzarlikni tasdiqlovchi ikkinchi javobni olgach, masalaga yana-da chuqurroq yondashishga kirishgan. Haydovchining qoidabuzarligini bo'rttirib, keyingi bahsni davom ettirgan.

YPX xodimi: Siz o'zingiz kirib ketdingiz? (6-savol)

Yuqoridagi 1-3 savollarga qoidabuzarlik sodir etilganini tasdiqlovchi javoblar olinganidan so'ng ichki ishlar xodimi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning tegishli moddalari bo'yicha qoidabuzarlikni rasmiylashtirish ishlarini boshlamagan. Natijada haydovchi keyingi savollarga noaniq javob qaytarib, turli bahonalarni vaj qilgan. YPX xodimi ham bahslashishni ma'qul ko'rgan.

YPX xodimi: Ochiq holatda qoldirib ketgan? (7-savol)

Mazkur ritorik savolga ham qoidabuzarlik sodir etilgani haqida tasdiq javobi olingach, ichki ishlar xodimi ma'lumotni yana-da sinchiklashni davom ettirgan.

YPX xodimi: Avtobusni ochiq holatda qoldirib, tashlab kirib ketdingiz? (8-savol).

YPX xodimi qoidabuzarlikni sodir etilishida ikkinchi shaxsning aloqasi yo'qligini eksplitsit tarzda ta'kidlab, bunda faqat haydovchi javobgarlikka tortilishini yetkazgan. Haydovchi holat bo'yicha noaniq fikrlarni aytib, javobgarlikdan qutulishga urinishni boshlagan.

YPX xodimi: Odamni shu yerdan olasizmi? (12-savol)

Haydovchi qoidabuzarlikni turli vajlar orqali rad etishni boshlagach, YPX xodimi takroran savol bilan murojaat qiladi. Komissiv-savolga taqdim qilingan tasdiqlovchi javob jarima qo'llashga asos bo'lishi mumkin. YPX xodimi usutunlikni namoyish maqsadida haydovchiga ketma-ket savollar berib muloqotni davom ettirgan.

YPX xodimi: Nega, bu joy "avtostoyanka" emas-ku!? (15-savol)

YPX xodimi keltirilgan javoblarning har birini haydovchining o'ziga qarshi qo'llashga intilgan. Shuningdek, ekspressiv-ta'kidlash nutq akti ma'noni bo'rttirib, haydovchini bo'ysundirishga harakat qilgan.

YPX xodimi: Kim qilib bermadi? (16-savol)

Mazkur aynanlashtirish savoli aybni to'laligicha haydovchiga yuklash maqsadida so'ralgan. YPX xodimi bahsni davom ettirib, har qanday usul bilan qonun ustuvor ekanligini uqtirgan. Savollar orqali "hujum"ga o'tib, haydovchini chorasiz qoldirishga uringan.

YPX xodimi: Davlat qilib bermadi? Qaysi davlat qilib bermadi? (17–18-savollar).

Ushbu jumalarda nutq akti vazifasiga ko'ra ma'lumotni sinchiklash va bahslashish sifatida qo'llash orqali haydovchini ortiqcha tortishmaslikka chorlangan. YPX xodimi bahslashgan sari holat haydovchi uchun og'irlashib borishi mumkinligini isbotlashga uringan. Bu esa haydovchiga noqulaylik tug'dirgan.

YPX xodimi: Kim olib bermadi? Rahbariz qayerdan olasan deydi? Har kuni qatnov qismidan odam olasizlarmi? Yangiyo'l aholisini mana shu joydan olib, mana shu joyda tushirasizlarmi? (32–35-savollar)

Yuqorida YPX xodimi tomonidan qo'llanilgan savollar nutq aktining ma'lumotni sinchiklash, aynanlashtirish va bahslashish vazifalarini bajargan. Haydovchi aytgan jumalar mantiqan noto'g'ri ekanligi ko'rsatish, o'zini aybsiz ekanligini ibotlashga chek qo'yish maqsadida mazkur nutq aktlari qo'llanilgan. Muloqotda YPX xodimi so'zsiz hukmronlikni o'rnatishga harakat qilgan.

Xulosa

Qoidabuzarlik yuzasidan o'tkazilgan suhbatlarda haydovchilar jarimadan qutulib qolish uchun dalillar va isbotlarni yashirishga uringanlar. AQSh yo'l patrul politsiyachisi va O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Yo'l patrul-xizmati xodimi haydovchining sodir etgan qoidabuzarligini tan olishga undashda turli strategiyalarini qo'llash va muloqotning maqbul usullarini tanlay bilishlariga to'g'ri keladi.

AQSh yo'l patrul politsiyachisi ko'zlangan maqsadga erishishda komissiv-savol so'rash va direktiv-buyurish aktlarini bir jumla tarkibida qo'llashi kutilgan natijani ta'minlaydi. Shuningdek, dalillar haydovchi tomonidan rad etilganda, verdiktiv akt haqiqatni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Shu sababli nutq aktlari taktikasi haydovchining o'z aybini tan olishiga, kutilgan dalillarni taqdim qilishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Yo'l patrul-xizmati xodimi tomonidan nutq aktining ekspressiv-ta'kidlash turi, ma'lumotni sinchiklash va bahslashish vazifalari kutilgan natijani beradi. Biroq muloqotda uzoq vaqt bahslashish o'rniga AQSh yo'l patrul politsiyachisi singari nutq aktining ma'lumotlarni aynanlashtirish vazifasini keng qo'llab, tegishli qarorni tezroq qabul qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar / References

- Barus, R. D. (2017). Speech acts in police investigative interviews, Jurnal Linguistik Terapan Pascasarjana, No. 14(3). 1–9.
<https://jurnal.unimed.ac.id/2012/index.php/LTBI/article/view/11269/9948#>
- Holt E. & Cliff R. (2010). Reporting Talk: Reported Speech in Interaction. Cambridge: Cambridge University Press.
- Heidi, Ju. & Setyaningsih, N. (2024). Speech Act in a Courtroom: An Analysis of Chris Watts' Trial // Allure Journal. No 4 (1). 55–71.
DOI: <https://doi.org/10.26877/allure.v4i1.17484>
- Khoyi A.M. & Behnam B. (2014). Discourse of Law: Analysis of Cooperative Principles and Speech Acts in Iranian Law Courts // Asian Journal of Education and e-Learning. No. 02(04). 312-322.//
https://www.academia.edu/9407595/Discourse_Of_Law_Analysis_Of_Cooperative_Principles_And_Speech_Acts_In_Iranian_Law_Courts
- Kreidler, C.W. (1998). Introducing English Semantic. New York: Routledge.
- Searle, J.R. (1969). Speech Acts: An Essay in The Philosophy of Language. Cambridge: Cambridge University Press. 22-26.
<https://www.youtube.com> // Avtopatrul | Toshkent viloyati va hududlar bo'ylab reytd tadbirlari [01.02.2024]
<https://www.youtube.com> // Live PD Most Viewed Moments from Greene County, Missouri A&E
<https://lex.uz/docs/5953883>
<https://www.bazar.club/blog/post/driving-us-rules-and-signs>